

**NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARIGA INGLIZ TILINI  
O‘QITISHDA CLIL TA’LIM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING  
NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI**

*Murodullayeva Sarvinoz Yorqin qizi  
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti,  
1-kurs magistranti*

### **ANNOTASIYA**

CLIL ta’lim texnologiyasi nofilologik fanlarni xorijiy tilda o‘qitish orqali ko‘p tillilikni oshirishga qaratilgan ta’lim yondashuvi bo‘lib, kundan-kunga dunyoning ko‘pgina davlatlarining o‘qitish tizimida qo‘llanib kelinmoqda. Chunki CLIL ta’lim texnologiyasi ijtimoiy, madaniy, kognitiv, lingvistik, akademik va boshqa ta’lim ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi yondashuv bo‘lib til va ta’limni uyg‘un holda o‘rganish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot CLIL ta’lim texnologiyasining ahamiyati va ushbu ta’lim texnologiyasidan foydalangan holda ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini izohlaydi. Shuningdek, talabalarning til va ta’limni birga o‘rganishida ushbu ta’lim texnologiyasidan foydalananishning samaradorligi yoritiladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** CLIL ta’lim texnologiyasi, ikki tillilik, nofilologik guruhlar, dars samaradorligi, til ko‘nikmalar, kompetensiya

### **KIRISH**

So‘nggi yillarda globalizatsiya, ko‘p madaniyatatlilik va ko‘p tillilik ko‘nikmasiga talab oshishi kabi holatlar ikki tillilikka asoslangan ta’lim tizimida muhim o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, chet tillarini o‘rganishdagi turli xil innovatsion ta’lim yondashuvlari o‘quvchilarni turli ko‘nikmalarni egallash uchun real vaziyatlarga joylashtirish imkoniyati mavjud bo‘lganda yaxshi natijalar ko‘rsatadi.<sup>1</sup> [ Tough 1991].

CLIL ta’lim texnologiyasi tushunchasidan xorijiy tilni o‘qitish tizimida foydalinish salmog‘i oshmoqda. Chunki, so‘nggi yillarda xorijiy tilni o‘rganish-o‘qitish tizimi til funksiyasini uning strukturaviy yondashuviga asoslangan o‘rganishdan muloqot ko‘nikmalarini ona tilidagidek erkin o‘rganish kabi rivojlanirishga qaratilgan.

Tadqiqotlar jarayonida ushbu soha bilan individual va jamoaviy darajada faoliyat yuritadigan turli oqimlar paydo bo‘ldi. O‘quv dasturi asosida til (language

<sup>1</sup> Tough J. (1991) Young Children Learning Languages. In Brumfit. C., Moon, J. & Toungue. Teaching English to Children From Practice to Principle (pp, 213-227) Harper Collins Publisher.

across the curriculum)<sup>2</sup> [ Coyle, Hood & Marsh. 2010], To‘rtta C ramkasi ( Four C framework)<sup>3</sup> [Coyle D. 2011], til o‘rganish strategiyalari (language learning strategies)<sup>4</sup> [Anna Uhl Chamot. 2014], kontentga asoslangan ko‘rsatmalar (content-based instructions)<sup>5</sup> [Angel M.Y. Lin 2016] kabi atamalar ilmiy munozaralarning bir qismi bo‘ldi. Content va tilni birlashtirishda o‘rganish endi yangilik emas va yuqoridagi atamalarning barchasi uning bir qismini egallaydi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Garchi, ushbu soha bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar – bu ta’lim texnologiyasi nofilologik yo‘nalishlarda qo‘llanilib talabalarning til va fanga bo‘lgan yuqori darajali qiziqish va motivatsiyaga ega bo‘lishiga sabab bo‘lishini ta’kidlasada, aynan nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini o‘qitishda CLIL ta’lim texnologiyasidan foydalanish to‘g‘risida xulosalar yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada biz, nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini o‘qitishda CLIL ta’lim texnologiyasidan foydalanishning nazariy metodologik asoslarini tashkil etishning bir qator imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Biz bir qancha shu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarini hamda rivojlangan davlatlarning ilmiy tadqiqot markazlarida ushbu yo‘nalish yuzasidan olib borilgan ishlar va ularning xulosalari bilan tanishib chiqdik. Bundan tashqari, umumiy CLIL ta’lim texnologiyasi to‘g‘risida to‘plangan ma’lumotlardan kelib chiqib nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini o‘qitishda ushbu ta’lim texnologiyasidan foydalanishni nazarda tutadigan metodologik asosni takomillashtirdik.

Ushbu maqolada, CLIL ta’lim texnologiyasining ingliz tilini o‘qitishdagi ahamiyati to‘g‘risida tadqiq qilinmagan jihatlarini yoritishga e’tibor qaratiladi. Xorijiy tilni o‘rgatishning eng yaxshi usuli deb qaralgan CLIL ta’lim texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarda o‘qituvchilarining malakasini oshirish muhim jihatlardan biri sifatida keltirib o‘tiladi.<sup>6</sup> [David Marsh, Maria Luisa Perez Canado and Juan Raez Padilla 2015]. Ushbu ta’lim texnologiyasi to‘g‘risida o‘rganish juda muhim. Chunki CLIL ta’lim texnologiyasi orqali o‘rganuvchi tilni o‘zlashtirishda sezilarli yutuqlarga olib keladigan aqliy jarayonni talab qiladigan lingvistik resurslarini kontentni o‘rganishda yanada oshiradilar.<sup>7</sup> [ Coyle, Hood & Marsh 2010]

## **NATIJALAR**

<sup>2</sup> Coyle, Hood & Marsh. (2010) *CLIL – Content And Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.

<sup>3</sup> Coyle D.(2011. April) teacher education and CLIL methods and tools. Unpublished seminar presented in Milan. Italy. Retrieved from <https://www.cremit.it/public/document/seminar>

<sup>4</sup> Anna Uhl Chamot. (2014). “Developing Self-Regulated Learning In The Language Classroom”. The George Washington University.

<sup>5</sup> Angel M.Y. Lin (2016). Faculty Of Education. The University Of Hongkong. Faculty Of Education. The University Of Hongkong.

<sup>6</sup> David Marsh, Maria Luisa Perez Canado and Juan Raez Padilla (2015). “CLIL in Action. Voices from the classroom”. Cambridge Scholars Publishing.

<sup>7</sup> Coyle, Hood & Marsh. (2010) *CLIL – Content And Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.

Erishilgan natijalarga ko‘ra, ushbu ta’lim texnologiyasi ingliz tilini o‘qitishda qo‘llanilganda pragmatik istiqbolli kompetensiyani rivojlantirish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, talabalarda kasbga doir akademik lug‘at boyligi har ikki tilda oshishi mukinligini aniqlaydi.

CLIL ta’lim texnologiyasi to‘g‘risida olib borilayotgan tadqiqotlar uning ta’rifi va metodologik asosini yetarli o‘rgangan bo‘lsada, bu ta’lim texnologiyasini pedagogik amaliyotda qo‘llashga doir sistematik analizlar yetarli emasligi - bu sohada tadqiqot o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

### **MUHOKAMA**

Shu o‘rinda, CLIL ta’lim texnologiyasi qo‘llanilishi samaradorligini ko‘rsatadigan hamda ushbu ta’lim texnologiyasiga asoslangan akademik ingliz tili kursini rivojlantirish jarayonida yakuniy testlar, dars rejalar, kuzatuv formalaridan foydalangan holda universitet talabalarining og‘zaki til ko‘nikmalarini yaxshilaganini aytib o‘tish joiz. [Phoodokmai 2011].

Bundan tashqari, CLIL ta’lim texnologiyasi asosida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishda talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan interaktiv o‘quv mashg‘ulotlaridan foydalanishning ahamiyati ham o‘rganib chiqilganligini ushbu soha bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadqiqotlar salmog‘i anchagina ekanligini ko‘rsatadi.<sup>8</sup> [Elmuratova Zamira 2022]

Ushbu tadqiqot jarayonida CLIL ta’lim texnologiyasi ahamiyati va nofilologik yo‘nalish talabalariga ushbu texnologiyadan foydalangan holda ingliz tilini o‘qitish natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

### **XULOSA**

Biz tadqiqotimizda CLIL ta’lim texnologiyasi qo‘llanilishi va dars jarayoniga tadbiq etilishiga doir adabiyotlarni tahlil qildik, ushbu mavzuning umumiyligi va farqli jihatlarini solishtirdik hamda o‘rganilayotgan ta’lim texnologiyasi orqali dars jarayonini tashkillashtirishning usul, vositalarini taqqosladik va bu asosda o‘zimizning gipotezamizni ilgari surdik.

Mazkur tadqiqot ingliz tili darslarini nofilologik yo‘nalish talabalri uchun CLIL ta’lim texnologiyasidan foydalangan holda tashkillashtirish hamda bu kabi o‘qitish tizimida talabalrning aynan qaysi ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘z sohalarida qo‘llashda ko‘proq imkoniyat berishi asoslab berildi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- Angel M.Y. Lin (2016). Faculty of Education. The University Of Hongkong. Faculty of Education. The University Of Hongkong.

<sup>8</sup> Elmuratova Zamira (2022) “The Use Of CLIL Activities In Teaching English”. Texas Journal Of Multidisciplinary Studies. 18.10.2022.

2. Anna Uhl Chamot. (2014). “Developing Self-Regulated Learning In The Language Classroom”. The George Washington University.
3. Coyle, Hood & Marsh. (2010) CLIL – Content And Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
4. Coyle D.(2011. April) teacher education and CLIL methods and tools. Unpublished seminar presented in Milan. Italy. Retrieved from <https://www.cremit.it/public/document/seminar>
5. David Marsh, Maria Luisa Perez Canado and Juan Ræz Padilla (2015). “CLIL in Action. Voices from the classroom”. Cambridge Scholars Publishing.
6. Elmuratova Zamira (2022) “The Use of CLIL Activities In Teaching English”. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 18.10.2022.
7. Tough J. (1991) Young Children Learning Languages. In Brumfit. C.Moon, J. & Toungue. Teaching English to Children from Practice to Principle (pp, 213-227) Harper Collins Publisher.